

DALA TADQIQOTLARI NATIJASIDA O‘ZBEKISTON FLORASI UCHUN YANGI TOPILMALARI

Azimjonova Muslima Azamjon qizi
Namangan davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: *mazkur turning areali Osiyoning janubiy-g‘arbiy va markaziy qismlari, Yevropaning janubi va Afrikaning shimoliy qismlari hisoblangan [40; 235 b, 168; 109-114 b]. Bu turni plantarium o‘simliklar aniqlagichi platformasini tahlil qilish natijasida janubiy Chotqol tizmasining O‘zbekiston qismida mavjudligi to‘g‘risida V. Yusupov tomonidan (2017) joylangan.*

Kalit so‘zlar: *tur, areal, dala, tatqiqod, mintaq, gerbariy, namuna, flora.*

2020-2023 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida 7 tur O‘zbekiston florasida uchun yangi tur sifatida keltirildi (har bir tur uchun gerbariy va tabiiy ilyustiratsiya rasmlari hamda GAT xaritalari 1-ilovaga qarang). Bular:

Girgensohnia bungeana Sukhor.in Edinburgh J. Bot. 64: 320 (2007).

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:77086961-1>

Tip. O‘zbekiston, Samarqand viloyati, Payariq tumani, Karakchita adirligi. 17.10.2006., Sukxorukov A. (№ MW 0592051).

A. Suxorukov (2007) tomonidan turning gerbariy namunalarini tahlil qilishi natijasida Girgensohnia bungeana fan uchun yangi tur sifatida keltirilgan. Mazkur tur O‘rta Osiyo, Markaziy va Sharqiy Eron mintaqalarining cho‘l va adir hududlarida tarqalgan. Ushbu turga sistematik jihatdan eng yaqin tur Girgensohnia oppositiflora bo‘lib, tanasining shoxlanishi o‘rta va yuqori qismining zich joylashishi va gultojibargining romb shaklidagi lansetsimon, ba‘zan tuxumsimon shaklda bo‘lishi bilan Girgensohnia oppositiflora dan farq qiladi [5; 317-330-b].

Bundan tashqari G.bungeana turining Farg‘ona vodiysining janubiy Chotqol tizmasida (Qirg‘iziston, Chotkal tizmasining etaklari. Ala-Buka qishlog‘idan janubga 17 km, Sumsarga yo‘l. 13.07.2016. A-1287 A. Seryogin (MW)) uchrashi haqida tasdiqlangan ma‘lumotlar mavjud.

Mazkur turni MW gerbariy fondida saqlangan namunalarni tahlil qilish davomida hamda maqsadli olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida turning o‘sish maydonlari aniqlandi va O‘zbekiston florasida uchun yangi tur sifatida Amaranthaceae oilasiga bag‘ishlangan floraning navbatdagi nashriga taqdim etildi.

2020-2023-yillarda maqsadli olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlarining Pop (Farg‘ona vodiysi, Namangan viloyati, Papa tumani. Muruldi, chap, Qurama tizmasi tog‘ etaklari. 19.09.2021. Xoshimov X.R., Z.Akbarov; Farg‘ona vodiysi, Namangan viloyati, Pop tumani, Uyg‘ursoydan 2 km g‘arbiga. 18.05.2021, Xoshimov X.R., N.E. Daminova, O. Sheraliyev), Chust (Namangan

viloyati Chust tumani Varzik qishlog'i Surxi adirligi. 28.05.2021 Xoshimov X.R.) va Namangan shahar (Farg'ona vodiysi, Namangan viloyati, Namangan shahar, Oxunboboyeva, Mazar. 4.05.2021. Xoshimov X.R.; Namangan shahar Davlatobod tumani Qoqunboy yo'li, G'irvonsoy bo'ylari. 25.05.2021. Xoshimov X.R.) hududlaridan turning ilk gerbariy namunalari terildi va mazkur tur O'zbekiston florasi uchun ilk bor ro'yxatga olindi. Bundan tashqari Farg'ona vodiysi uchun ham ilk bor keltirilmoqda. Ushbu tur Nurota va Hisor tizmasidagi o'sish nuqtasidan taxminan 400-550 km uzoqlikda joylashgan.

Allium arkitense R.M.Fritsch in *Stapfia* 80: 385 (2002).

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:20007590-1>

Tip. Kirgizstan: Chatkal range, Sarychilek valley NE vill. Arkit (type location, 41°50' N, 71°58' E, 1400 m, 13.5.1997 Fritsch & Khassanov 1625; GAT) TAX 5692

Mazkur tur *Allium* turkumining *Acmopetala* seksiyasi, *Acmopetala* R.M. Fritsch subseksiyasiga mansub bo'lib [86; 278 b], Farg'ona vodiysi kichik tor areallarda tarqalgan endemtlaridan biri hisoblanadi [2; 381-393-b]. Ushbu tur *A. alaicum* turidan bargining tuksizligi va gullarining binafsha rangda bo'lishi hamda *A. zergericum* turidan esa bandining qisqaligi va gullarning boshqa rangdaligi bilan farq qiladi. Ushbu uch tur Farg'ona vodiysining sharqiy qismidagi tog'lar va tog' etaklarida uchraydi [3; 278 b].

Bu tur hozirgi kungacha faqat *locus classicus* da ma'lum bo'lgan [2; 381-393-b] bo'lib, 2020-2023-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari davomida Farg'ona vodiysi shimoliy adirlarining Kosonsoy (Olmazor MFY, Kosonsoy o'rmon xo'jaligi adirligi, tosh shag'alli. 20.05.2020. Xoshimov X.R., Abdullayev Sh., G'ulomov P.), Chortoq (Janubiy Chotqol tizmasi, Arbag'ish adirligi. 14.05.2021. Tojibayev K.Sh., F.Karimov, X.Xoshimov; Chortoq shahridan 8-9 km shimoliy-sharqdagi adirliklari. 21.03.2022. Tojibayev K.Sh., Xoshimov X.R. va Kushon adirliklari. 30.03.2022. Xoshimov X.R.) va Yangiqo'rg'on (O'ng'or tepa. 13.04.2022. Xoshimov X., G'ulomov R.) tumanlaridan yangi gerbariy namunalari yig'ildi. Ushbu tur tadqiqot hududining 3 ta indeksida uchrashi ma'lum bo'lib har bir indekslarda o'rtacha 5-15 tagacha individlar borligi aniqlandi. Individlarning 2/3 qismi gullash fazasida ekanligi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida mazkur tur o'sgan maydonlarga antropogen omillarning xaf darajasi ancha yuqori ekanligi kuzatildi.

Ferula incisoserata Pimenov & J.V.Baranova in *Byull. Moskovsk. Obshch. Isp. Prir., Otd. Biol., n.s.*, 84(3): 87 (1979)

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:842312-1>

Tip. Janubiy Qirg'iziston Chotqol tizmasi. Kansoy daryosi, Qiziltokay va Tereksoy o'rtasida. 16.06.1976. № 660. M.G. Pimenov, Yu.V. Baranova. *Holotypus*-MW.

Mazkur tur Farg'ona vodiysining sharqiy (Farg'ona tizmasi) va shimoliy-sharqiy (Chotqol tizmasi) hududlarining gipsli, olajinsli, ohaktoshli, daryo terassalari bo'ylab, pistazorlarda, chag'ir toshli va butazorlarda tarqalgan endemturi hisoblanadi [14; 87

b]. G.A.Lazkov va boshqalar tomonidan (2014) Qirg'iziston florasida uchun endem sifatida qayt etilgan [105; 5-166 b]. Tadqiqot obyekti doirasida Ung'ortepaga (O'ng'ortepa. 28.03.2021. Tojibayev K.Sh., X.Xoshimov) uyushtirilgan dala tadqiqotlari davomida mazkur tur transchegaraviy (O'zbek-Qirg'iz) hududidan yangi subpopulyatsiyasi aniqlandi va O'zbekiston florasida uchun yangi topilma florasini Apiaceae oilasiga bag'ishlangan 5 tomini ferula turkumiga taqdim etildi.

O'sishning eng yaqin nuqtasi Karavan dovonida (taxminan 10-15 km, Nabiyeu, 1959 yil, namunasi TASH fondida saqlanadi) va Bozbu-tau (taxminan 15-38 km, Lazkov kolleksiyasi 2021).

Eremurus czatkalicus Lazkov in *Turczaninowia* 14(3): 12 (2011)

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:77119700-1>

Тип. Южные отроги Чаткалского хребта, бассейн реки Афлатун (Авлетим), ее левый приток, глинистый склон, 7 ВИ 2011, Г.А. Лазков (LE, isotypi – ALTB, FRU, MW)

E.szatkalicusturi G.A. Lazkov (2011) tomonidan fanga kiritilgan. Mazkurturiga eng yaqin bo'lgan tur *E.sogdianus* hisoblanadi. Bu turning *E.sogdianus* turidan asosiy farqigulining sariq va sariq-yashil rangdaligi, poyasining qizil yoki kulrang bo'lishi bilan farq qiladi. Hozirda *E.czatkalicus* turlarning to'liq tarqalish arealini belgilashning imkoni yo'q, chunki gerbariy materiallari *E.sogdianus* turidan unchalik farq qilmaydi. Ko'rinishidan bu tur Atoinokdagi va Chotqol tizmasidagi hududlarda tarqalgan *E.sogdianus* o'rnini bosadi. Muallif tomonidan Farg'ona (Arslanbob va Gumxona qishloqlari yaqinida) va Oloy tizmalarida uchraydigan tipik *E.sogdianus* kuzatganda, bu hududdagi turlarning deyarli barchasining gultojibargi oq rangga ega bo'lgan. Ammo Chotqol tizmasida tarqalgan turlarning barchasida gultojibargi sariq rangga ega bo'lgan [3; 11-13-b].

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda FVSHA lari bo'ylab 2020-2023-yillarda olib borilgan maqsadli dala tadqiqotlarimiz natijasida mazkur tur janubiy Chotqol tizmasining Kosonsoy (Olmazor MFY, Kosonsoy o'rmon xo'jaligi adirligi, tosh shag'alli. 20.05.2020. Xoshimov X.R., Dehqanov D., G'ulomov R.), Chortoq (Чартакинский район пос. Алихан; FV-784. 19.04.2021. Xoshimov X.R., Abdullayev Sh., G'ulomov R.; Janubiy Chotqol tizmasi, Arbag'ish adirligi. 05.06.2020. Tojibayev K.Sh., F.Karimov, X.Xoshimov) va O'ng'ortepa (Yangiqo'rg'on tumani Xazratishodan shimolga 2 km. 13.04.2022. Xoshimov X., G'ulomov R.) hududlarida uchrashi aniqlandi.

Plagiobasis centauroides Schrenk. in Bull. Cl. Phys.-Math. Acad. Imp. Sci. Saint-Pétersbourg 3: 109 (1845)

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:238658-1>

= *Plagiobasis dshungaricus* Iljin in Izv. Bot. Sada Akad. Nauk S.S.S.R. 30: 357 (1931 publ. 1932)

Ushbu tur monotipik bo'lib, areali Shinjon (Jungar Alatau), Zailiyskiy (sharqiy qismidagi Boguti tog'i), Kungei va Ketmen Alatau hisoblangan [2; 352-353 b]. Ushbu tur 2021-yilda tadqiqot obyekti doirasida olib borilgan dala tadqiqotlar natijasida janubiy Chotqol tizmasi Varzik qishlog'i atroflaridan topildi: "Chust tumani Varzik qishlog'i Surxi adirligi №FV-168, 1.06.2021 Xoshimov X.R.". Shuningdek, MW fondida bizning ma'lumotlarimizni tasdiqlaydigan namunalardan ham saqlanayotganligi aniqlandi: "Namangan viloyati kish. Qoraqo'rg'on 19.07.1931. Knorring O.E. № MW0890097". Bu ma'lumotlar Janubiy Chotqolda ushbu turning subpopulyatsiyasi borligini tasdiqlaydi va O'zbekiston florasining navbatdagi nashrlariga taqdim etildi.

Mazkur tur Qozog'iston "Qizil kitob"iga kiritilgan monotipik tur hisoblanadi. Bu tur adir va tog' etaklarining gipsli va konglomeratli toshli yonbag'irlarida uchraydi.

Ushbu tur tadqiqot hududining 2 ta (CH269, CI269) indekslarida uchrashi ma'lum bo'lib har bir indekslarda o'rtacha 8-20 tagacha individlar borligi aniqlandi va individlarning 2/3 qismi gullash fazasida ekanligi kuzatildi.

P. centauroides Bomskey qishlog'i (Qirg'iziston) hududidagi subpopulyatsiyasidan taxminan 400-420 km hamda Ketmen va Jungar tizmalaridan (Qozog'iston) 700-800 km uzoqlikda joylashganligi aniqlandi.

Fritillaria rugillosa Naumenko & Zubov. in Int. Rock Gard. 140: 10 (2021)

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:77234090-1>

Tip. Kyrgyzstan, Jalal-Abad Region, to the west of city Tash-Kumyr, north-eastern part of the Fergana Valley; low mountains, red clay outcrops, c. 1000 m elevation; fl. 27.03.2021, coll. Naumenko & Zenin s.n. (holotypus OL 38056!)

Farg'ona vodiysini shimoliy mintaqalarida o'tkazilgan barcha oldingi dala tadqiqotlarida bu tur g'arbiy Tyanshan uchun endemik bo'lgan *F. stenantha* (Regel) Regel sifatida qayd qilingan edi. Ammo *F. stenantha* turining areali faqatgina Talas vodiysi uchun xos ekanligi aniqlandi. A. Naumenko va D. Zubovlar 2021-yilda sharqiy Farg'ona vodiysidan kirib kelgan o'simliklarni fan uchun yangi *F. rugillosa* sifatida qayd qilishdi. Mualliflar *F. rugillosa* turini *F. stenantha* turidan asosan gulqo'rg'onning to'q pushti rangdaligi, tanasining tuklar bilan qonlanishi, poyasining jigarrangdaligi va gul o'rnining nisbatan kengligi bilan farqlab bergan. Bundan tashqari ushbu tur yuqori ehtimollik bilan Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismida ham uchrashini ham taxmin qilishgan [6; 140 b]. 2021-yildagi dala tadqiqotlari natijasida janubiy Chotqol tizmasining Chortoq (Chortoq tumani Janubiy Chotqol tizmasi, Arbag'ish adirligi, 14.05.2021. Tojibayev K.Sh., F. Karimov, X. Xoshimov; Chortoq shahridan 9-10 km shimoliy-sharqdagi adirliklari. 21.03.2022, Tojibayev K.Sh., Xoshimov X.R.) va Yangiqo'rg'on (Yangiqo'rg'on tumani O'ng'ortepe, 28.03.2021. Tojibayev K.Sh., X. Xoshimov) hududlarida turning populyatsiyasi mavjudligi aniqlandi. Ammo mazkur turning populyatsiyasi *F. stenantha* turining populyatsiyasidan aniq farqlanmagan. Shuning uchun *F. rugillosa* turining areali kengroq bo'lishi mumkin. Shu ma'lumotlarga tayangan holda bu tur O'zbekiston florasining navbatdagi nashrlariga taqdim etildi.

Zygophyllum fabago L.in Sp. Pl.: 385 (1753).

<https://powo.science.kew.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:873557-1>

= *Zygophyllum fabago* subsp. *dolichocarpum* Popov ex Hadidi in Fl. Iranica 98: 27 (1972)

= *Zygophyllum fabago* subsp. *dolichocarpum* Popov in Byull. Sredne-Aziatsk. Gosud. Univ. 11: 112 (1925)

= *Zygophyllum fabago* var. *typicum* Popov in Byull. Sredne-Aziatsk. Gosud. Univ. 11: 112 (1925)

Tip. Herb. Linn. 544.1 (LINN).

Mazkur turning areali Osiyoning janubiy-g'arbiy va markaziy qismlari, Yevropaning janubi va Afrikaning shimoliy qismlari hisoblangan. Bu turni plantarium o'simliklar aniqlagichi platformasini tahlil qilish natijasida janubiy Chotqol tizmasining O'zbekiston qismida mavjudligi to'g'risida V.Yusupov tomonidan (2017) joylangan (O'zbekiston, Namangan viloyati, Rezaksay daryosining loyli sohili. 30.05.2017. N 40° 57' 9.91" E 71° 18' 39.58" V. Yusupov (Plantarium)) ma'lumotlar asosida ushbu turning subpopulyatsiyasi borligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqot obyekti doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mazkur tur haqiqatdan ham Janubiy Chotqol tizmasining Chust (Varzik qishlog'i Surxi adirligi. 28.05.2021, Xoshimov X.R., Chust tumani, Rezaksoy suv ombori atrofi, 1.05.2021. Xoshimov X.R., Axcha qishlog'i, Chap adirligi. 18.05.2021. Xoshimov X.R., Abdullayev Sh., Baymoq, Chap adirligi. 8.10.2021. Xoshimov X.R.) hududlarida uchrashi aniqlandi. Shu ma'lumotlarga tayangan holda bu tur O'zbekiston florasining navbatdagi nashrlariga taqdim etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. Sukhorukov A.P. Notes on the taxonomy of *Girgensohnia* (Chenopodiaceae/Amaranthaceae). *Edinburgh journal of botany*, 2007. 64 (3): – P. 317-330.

2. Fritsch R.M., Khassanov F.O. and Matin F., *New Allium taxa, from Middle Asia and Iran*. *Stapfia*, 2002. 80. – P. 381-393.

3. Fritsch R.M. A Preliminary Review of *Allium* subg. *Melanocrommyum* in Central Asia. — *Leibniz-Institut für Pflanzengenetik und Kulturpflanzenforschung Gatersleben (IPK), Gatersleben.*, 2016. – P. - 278.

4. Lazkov G.A., Sultanova B.A. Checklist of vascular plants of Kyrgyzstan. *Norrlinia*, 2014b. 24: – P. 5–166.

5. Пименов М.Г., Баранова Ю.В. Краткий обзор раздела. Палеонартекс Коровин из Рода *Ferula*. *Бюлл. Московский*, 1979. *Общ. Исп. Прир., Отд. Биол., н.с.*, 84 (3): -С 87.

6. Naumenko A., Zubov D. *Fritillaria rugilosa* (subgen. *Rhinopetalum*; Liliaceae): a new species from the Fergana Valley, southern Kyrgyzstan. *International Rock Gardener*, 2021. – P. 140.